

G‘arbiy Yevropa va sharqda feodal munosabatlarning yuzaga kelishi.

*Jo‘rayeva Lobar
Xushboqova Xurshida*

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining talabasi

Annotatsiya: Hozirgi Yevropa xalqlari va mamlakatlarining tarixi adabiyotlarda shartli ravishda “o’rta asrlar” deb nomlangan davrdan boshlanadi.

O’rta asrlar lotinchadan “medium aevum” (o’rta asr) tarzida ilk bor ilmiy adabiyotlarda Italiya gumanistlari tomonidan kiritilgan.

Kalit so’zlar: Kolonlik, feodal, varvar, bagaud, keltlar, germanlar, slavyanlar, galliyaliklar, kelt-iberlar,

O’rta asrlar (lot.medium aevum;-tarix fanida jahon tarixining qadimgi dunyo bilan yangi tarix oralig’idagi davrni ifodalash uchun qabul qilingan atama. O’rta asrlar tushunchasi XV-XVI asrlarda italyan tarixchilari asarlarida uchraydi. Ilk bor italyan gumanisti Flavio B’onda tomonidan 1453-yilda qo’llanilgan. O’rta asrlar atamasi Galliya universiteti professori Xristofor Sellarus tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Dastlab G’arbiy Yevropa mamlakatlari tarixiga nisbatan ishlatilgan. Bu atamashunoslik XVIII asrda uzil- kesil qaror topdi.

O’rta asrlar tarixi insoniyat tarixida muhim bosqich bo’lib, tarixshunoslikda u uzoq davrni milodning V-XVII asrlarini o’z ichiga oladi. O’rta asrlar tarixi 3ta katta davrga bo’linadi.

1. Ilk o’rta asrlar V asrda boshlanib, taxminan XI asr oxirigacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu davr insoniyat tarixida yer mulkchilik munosabatlari bilan bog’liq iqtisodiy ishlab chiqarish usuliga, ya’ni feodal munosabatlariga o’tish (feod-lot.yer,mulk, al-egasi) feodal pomestyesining vujudga kelishi, feodal tabaqalarning tashkil topishi, katolik cherkovi ta’sirining G’arbiy Yevropaga yoyilishi, islam dinining paydo bo’lishi va keng tarqalishi davridir.

2. Rivojlangan o’rta asrlar XI – XV asr o’rtalarigacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi va bu davrda feodal ishlab chiqarish usuli qishoqda to’la rivojlanibgina qolmay, balki sex hunarmandchiliga va o’ziga xos shahar ijtimoiy tuzumiga ega bo’lgan o’rta asrlar shaharlari rivojlanib, muvaffaqiyatga erishdi, ya’ni shahar respublikalar vujudga keldi.(Venetsiya, Genuya, Florensiya kabi.Salib yurishlari natijasida mehnat taqsimoti o’sdi, savdo rivojlandi, natural xo’jalik yemirila boshladi.

3. So’nggi o’rta asrlar XV – XVII asrning birinchi yarmini o’z ichiga olib, bu davrda Yevropada uyg’onish davri madaniyatining rivoji,dastlabki jamg’arish (kapitalning) vujudga kelishi, Buyuk geografik kashfiyotlar va ixtiolar, Yevropa diniy reformatsiyasi, dehqonlar urushlari va ilk burjua inqiloblari davridir.

O'rta asrlar davri 476 yil ya'ni G'arbiy Rim imperiyasining qulashi voqeasidan boshlanib, to 1640 yilgi Angliya burjua inqilobigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

O'rta asrlar davriga oid manbalarni 3 turga bo'lamiz; 1) Tarixiy yilnomalar; qissalar; bularga "Sali haqiqati", "Russkaya pravda" va h.zolar.

2) Hujjatlar-ijtimoiy- iqtisodiy, huquqiy va siyosiy hayotni ko'rsatuvchi jarimalar,soliqlar boshqaruva sud faoliyatlari bilan bog'liq yozma manbalar.

3) Qonunchilik bilan bog'liq manbalar-bu imperator yoki qirollar farmonlari, parlament qarorlari va h.zolar.

Rim imperiyasida quldarlik tuzumi III asrdayoq tamomila tushkunlikka uchragan edi. Qul mehnati unumdarligining pastligi, Rimga qarshi to'xtovsiz urushlar bo'lib turishi, fitnalar va qullqrning qo'zg'olonlari-bularning hammasi quldarlikni dijib qilishiga yordam berdi. Biroq quldarlikni qabiliyatli hizmat bilan qurib oshishiga.

xo'jaligini izdan chiqarmoqda edi. Rim quldorlari qulchilikna bir oz yumshatish va ullarni ekspluatatsiya qilishning boshqa formalarini joriy qilish yo'li bilan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozdan qutilishiga urindilar, imperianing III asrdan V asrgacha davom etgan so'nggi davridagi Rim quldorlari iqtisodiyotining xususiyati ana shunday bo'lib, bu tarixda kolonlik (lot. ijarachi, ijaraga yer oluvchi). Dastlabki kolonlar deb Rim respublikasida quldorlar pomestyelaridan yer uchastkalarini ijaraga olib ishlovchi ijarachi erkin mayda dehqonlar tushunilgan. Davlatning bir qadar qo'llab-quvatlashiga qaramasdan, rimplik mustaqil dehqonlar xonavayron bo'la boshladilar, ularning yerlari quldorlar qo'liga o'ta boshladи.

332 yilda imperator Konstantin katta yer egalarining manfatlarini ko'zda tutib, kolonlarni ishlab turgan pomestyesini tashlab ketishini ta'qiqlaydigan va qochib ketgan kolonlarni majburiy yo'l bilan qaytarib olib kelinilishini talab qiladigan farmon chiqardi. Bu farmon natijasida kolon ikki qiyofali maxluq bo'lib qolgan edi. U yuridik jihatdan qul deb hisoblanmas edi, (ya'ni u qulga nisbatan erkin kishi deb hisoblanar edi, davlat undan fuqarolik soliqlari olar edi), lekin haqiqatda esa erkin emas edi, chunki u pomestyedan chiqib ketolmas va yer egasiga obrok to'lab turishga va "qullik majburiyati"- barshchina o'tashga majbur edi.

IV-V asrlarda kolonlar soni yersiz dehqonlar hisobiga qisman ozod qilinganlar qullar hisobiga ko'paya bordi.

IV asrda Rim hukumati o'zining III asrda og'ir inqiroz holatidan birmuncha qutildi. Imperatorlardan Diokletian (284-305) va Konstantin (306-337) imperiyaning ma'muriy- moliyaviy sohasini mustahkamlash uchun bir qancha islohotlar o'tkazdi. Soliqning natural shaklida olinishi, soliq solishni tartibga solish maqsadida goh-goh yerlarning va aholining hisobga olib turilishi, ish haqining va mollar narxining normaga solinishi, oltin muomalasining tiklanishi shu islohotlar jumlasidandir.

Imperiyaning inqirozi IV asr oxiri va V asr boshlarida battar keskinlashdi. Ko'pgina ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar o'tkazilishiga qaramay, Rim jamiyatni quzdorlikka asoslangan jamiyat holicha qolgandi. Quzdorlik tuzumini yo'q qilishning bir yo'lli-

bu inqilob yo'li bilan amalga oshirish mumkin edi. Bu juda katta ijtimoiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchlari Rim jamiyatidagi ezilgan sinflar va varvarlar bo'ldi. Qullar, kolonlar, shahar hunarmandlari III – V asrlar davomida o'z xo'jayinlariga, quzdorga qarshi kurash olib bordilar. Galliya va Ispaniyada bagaudlar (oddiy dehqonlar)ning III –V asrdagi qo'zg'oloni, Shimoliy Afrikada agonistiklarning harakati Retsiya, Pannoniya, Norikadagi sukamarlarning V asr o'rtalaridagi g'loyonlari bunga yaqqol dalildir. Lekin Rimdagi ommaning kuchlari, tarqoq, uyushmagan edi va mag'lubiyat bilan tugar edi. Biroq quzdorlik Rimiga qarshi ezilgan aholidan tashqari yana bir kuch-qo'shni varvarlar ham bosh ko'tardi. Rim imperiyasining qiyin ahvoldidan foydalanib, bo'sh yer va boshqa o'lkalarda paydo bo'lgan varvarlar (IV-V asrlarda bular asosan german qabilalari edi) birin ketin viloyatlarni qo'lga ola boshladilar, nihoyat 476 yilda G'arbiy Rim imperatorlari qo'lida birgina Italiya qolgan edi.

Italiyadan shimolga juda ko'p varvar qabilalari yashagan, ular 3 ta katta guruhga; keltlar, germanlar va slavyanlarga bo'lingan edi. Varvarlarning ijtimoiy tuzumi Rim quzdorlik tuzumiga butunlay qarama- qarshi edi. Ularda hali ijtimoiy sinflar tarkib topmagan edi, haqiqiy ma'nodagi davlat yo'q edi. Bu qabilalar aholisining asosiy ommasi erkin kishilardan iborat edi.

Rim dastlab keltlar bilan to'qnashdi. Kelt qabilalari mil.avv. I ming yillik o'rtalarida G'arbiy Yevropaning ancha hududida o'rashib olgan edi. Mil.avv. VI-III asrlarda ular G'arbiy Germaniyada va Fransiyada (galliyaliklar), Ispaniyada (kelt-iberlar), Irlandiyada (irlar yoki eyrlar), Angliyada (brittlar), Shveytsariyada (gelvetlar) o'rashgan edilar. Kichik Osiyoda keltlar mil.avv. III asr o'rtalarida davlat tuzib, bu davlat Gallatiya deb ataldi.

Keltlar o'rta asr Yevropasining tashkil topishida muhim rol o'ynadilar. Keltlarning ko'philigi oqibat-natijasida rimliklarga bo'ysungan bo'lsa-da, lekin ular varvarlar ichida birinchi bo'lib, rimliklarga qattiq qarshlik ko'rsatdilar, ya'ni bir qancha etnik va til elementlari G'arbiy Yevropadagi ko'pgina xalqlarga- fransuzlar, irlandlar, ingлизlar, ispanlarga keltlardan o'tdi.

Ikkinci bir qabila germanlar bo'lib, ular Reyn daryosidan El'ba daryosigacha bo'lgan hududlarda yashaganlar. Bu qabilalar haqida Rim tarixchisi Tatsitning "Germaniya" degan kitobida va Yuliy Sezarning "Galliya urushi haqidagi sharhlar" kitoblarida manbalar uchraydi.

III asrning o'rtalari, ya'ni Rim imperiyasida qattiq ijtimoiy va siyosiy inqiroz hukm surayotgan bir paytda g'arbiy german qabilalari franklar va svevlar Reyndan ya'ni Germanianing g'arbidagi Rim chegarasidan o'tdilar.

Xuddi shunday vaqtida sharqiy german qabilalari ham siljiy boshladilar. Gotlar- shimoldan janubga Dunay havzasiga tushib, Daniya hududining bir qismini bosib oldi va sharq tomonga Qora Dengiz bo'yiga tarqaldi. Bu yerga gotlar slavyan, sharqiy sarmat qabilalari va boshqa qabilalar orasida 150 yilcha yashadilar. Ular

Qora dendiz bo'yiga ko'p qabilali 2 ta qirollik; Vestgog qirolligi (Dunayning quyi oqimi) va Ostgot qirolligi (quyi Dnenr havzasida) tuzdilar va Sharqiy Rim imperiyasining chegaralariga yaqinlashib keldilar. 3 chi bir qabila slavyan bo'lib, ularni eramizni VI asrida Vizantiyalik yozuvchilar ko'p tilga olganlar. VI asrda yashagan Vizantianlik tarixchi Prokopiylar slavyanlarni sklavinlar va antlar deb atagan. Prokopiyning yozishicha, sklavinlar Dunay bo'yida, antlar Dnestrning sharqida yashaganlar.

Slavyanlar juda katta hududda, shimolda Boltiq dengizi qirg'oqlaridan tortib, janubda Dunaygacha, g'arbda Dunaydan tortib to Dnepr havzasigacha va Dneprning shimoldan to Okagacha borar edi.

VI-VII asrlarda slavyanlar Visladan El'baga qarab, Rim imperiyasi hududiga ko'chib ketgan german qabilalarini ilgarigi hududlarni ishg'ol qildilar. Nihoyat slavyanlar Bolqon yarim oroliga, Sharqiy Rim imperiyasi hududiga Vizantiyaga bostirib kirdilar va joylashib olib, Vizantiya ijtimoiy-iqtisodiy tuzumining o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatdilar.

IV asr boshlaridan boshlab qabilalarning katta katta ittifoqi birlashuvi jarayoni yuz bera boshladi. Quyi Reynda hamda Yutlandiya yarim orolida anglo-saks qabilalari birlashmasi; O'rta Reynda frank qabilalari ittifoqi; Yuqori Reynda allemanlar ittifoqi; El'bada va El'baning narigi tomonida langobardlar, vandallar, burgundlarning ittifoqlari tashkil topdi.

IV asr oxiri va V asrda varvarlar yoppasiga imperiya hududiga yo'l olishdi va bu tarixga xalqlarning buyuk ko'chishi davri bo'lib kirgan. IV-VI asrlar Yevropa tarixida xalqlarning buyuk ko'chish davri bo'lib, ko'chish natijasida xalqlarning yashash chegaralari chegaralari keskin o'zgarib, bu ko'chish imperiya hududiga gotlarning kirib kelishi bilan boshlandi. (Gotlarning sharqiy qismidagi gotlar-Ostgotlar deyilgan) Ostgotlar ko'p qabilali ittifoq bo'lib, ularga slavyan va sharqiy sarmat qabilalari ham kirgan edi, bu davlatga qirol Germanarix 50 yil boshchilik qildi. U 375 yilda vafot etgach, Qora Dengiz bo'yiga Osiyodan ko'p sonli gunnlar qabilasi keldi). Gotlarning xunnlarga itoat etmagan qismi g'arbiy gotlar deyilgan. Vestgotlar-Bolqon yarim orolining janubiga qarab yo'l olib 378 yilda Adrianopolga yaqin joyda Rim qo'shnlarni tor-mor qiladilar, bu qo'shnlarga qo'mondonlik qilgan imperator Valent o'ldiriladi. Yangi imperator Feodosiy I (379-395) muzokaralar yo'li bilan vestotlarni tinchlantirdi, va ularga Bolqon yarim orolining serhosil yerkari ajratib berildi. 90 yillarga kelib Illiriya viloyati vestgotlarga berildi.

Feodosiy vafotida keyin imperiya uning o'g'llari o'rtasida taqsimlandi, Sharqda-Arkadiy (395-408), G'arbda- Gonoriy (395-423) idora qila boshladi.

Gonoriyning lashkarboshisi Stilixion (u varvar edi) dastlab vestgotlarning Italiyaga qilgan hujumlarini to'xtatib turdi. Vestgotlar qiroli Alarix 409 yilda Italiya hududiga kirib bordi (chunki bu paytda Stilixion vazifasidan tushirilgan edi, shuning uchun Alarix qarshilikka uchramadi). Vestgotlar Rimni 410 yilning 24 avgust kuni bosib

oldilar. Alarix 410 yilda Afrikaga yurish qilayotgan mahali o'ldirildi. Vestgotlar Gonoriy hukumati bilan kelishib, bir oz muddatdan so'ng, janubiy Galliyaga o'tdilar va u yerda 419 yili Rim imperiyasi hududida dastlabki varvar qiroligini tuzdilar, uning poytaxti Tuluza shahri bo'lgan. Tuluza qirolligi Rim imperiyasiga nomigagina qaram edi, aslida u butunlay mustaqil edi.

Bu davrda boshqa bir varvar qabilalari vandallar va svevlar Pireniya yarim oroliga bostirib kirdilar va Gvadiana daryosi janubini egalladilar. Vandallar bu yerda qiro Geyzerex boshchiligidagi Shimoliy Afrikaga hujum qildilar va 439 yilda 2chi varvar qirolligi tashkil topib, bu davlatning poytaxti qadimgi Karfagen edi va bu podsholik Alan-Vandal qirolligi deb atalgan.

443-457 yillar Rona daryosi havzasida yana bir varvar qirolligi vujudga keldi, bu qirolikning poytaxti Lion shahri bo'lib, bu Burgundiya qirolligi edi.

Bu qirollik hajmi jihatdan kichikroq bo'lsada, hozirgi Fransiyaning janubi-sharqida joylarni ishg'ol qilgan edi. Bu qirollik vujudga kelishi bilan, imperiyaning shimoliy Galliya bilan aloqasi uzilib qoldi. Bu paytda G'arbiy Rim imperiyasini sonda bor-u, salmoqda yo'q imператор Valentinian III (425-455) idora qilib turgan edi. U 455 yilda o'ldirilgach, vandallar hujum qilib Rimni 4 kun taladilar va bu hujum imperiyani uzil-kesil halok qildi. 476 yilda German qabilalarining sarkardasi Odoakr G'arbiy Rimning so'nggi imператорi 15 yoshli Romul Avgustni taxtdan ag'daradi. Germanlar o'z lashkarboshlari Odakrni imператор deb e'lon qilganlar. Shunday qilib, G'arbiy Rim imperiyasi rasmiy jihatdan ham tamom bo'ldi. Uning markazi Parij shahri bo'lgan Shimoliy Galliyadagi qolgan-qutgan hududini 486 yilda frank qiroli Xlodvig bosib oldi.

Italiyani nomigagina taxtga o'tirgan imператорlar nomidan yollanma varvar drujinachilarini boshliqlari idora qildi.

Italiyani bosib olgan ostgotlarni vizantianliklar 552 yilda mag'lubiyatga uchratadi va Vizantiyaliklar Italiyani 555 yilda batamon bosib oldilar va ostgotlar qirib tashlandi.

Lekin Vizantianing Italiyada hukmronlik qilishi uzoqqa bormadi. 568 yilda Shimoliy Italiyaga yangi varvarlar langobardlar bostirib kirdilar. Langabardlar oldin El'baning chap qirg'og'ida yashagan bo'lib, svev qabilalarga qarindosh edi. Langobardlar boshlig'i qiro Alboin edi, yangi davlatning poytaxti Paviya shahri edi. Langobard qirolligi bilan bir vaqtida Italiyada VI-VII asrlarda yana bir siyosiy tashkilot papalik vujudga keldi. Rimning va Rim viloyatining ham diniy, ham dunyoviy hokimi bo'lgan birinchi papa Grigoriy I (590-604) bo'ldi. Shunday qilib G'arbiy Yevropa xaritasi V- VI asrlarda butunlay o'zgarib ketdi. G'oyat katta G'arbiy Rim imperiyasi tamomila yo'qoldi. Sharqiy Rim imperiyasi esa Vizantiya degan nom bilan yashab keldi.

Yevropada davlat tuzumi ibridoib bo'lgan o'nlab mayda-mayda varvar qiroliklari vujudga keldi.

Foydanilgan adabiyotlar

- 1 Кертман Л.Г. География, история и культура Англии. М.: Высшая школа, 1979.
- 2 Барг М.А. Кромвель и его время. М., Уч.пед.издат РСФСР, 1960.
3. История Ирландии. Отв.ред Л.И.Гольман. М.: Наука, 1980.
4. История Франции. Под рук. А.З.Манфреда в 3-х томах. М.: Наука, 1972-1973.
5. Ревуненков В.Г. Очерки по истории Великой Французской революции. Падение монархии. Л., ЛГУ, 1982.
6. Ревуненков В.Г. Очерки по истории Великой Французской революции. Якобинская диктатура и ее крушение. Л., ЛГУ, 1983.
7. Тарле Е.В. Наполеон. Соч.в 12 томах. Т.7. АН СССР. 1957-1962.